




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI



**QASHQADARYO VILOYATIDA
O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL
TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI
(2022/2023- o'quv yili boshiga)**





O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun. Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish

va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'limning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat





O'zbekiston Respublikasida o'рта maxsus, professional ta'limi tizimi

O'рта maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'рта ta'lim asosida

ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'рта professional
ta'lim**



**O'рта maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining

va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'рта professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'рта, o'рта maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'рта maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'рта, o'рта maxsus, boshlang'ich professional va o'рта professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.





Akademik litseylar soni va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi

(o'quv yili boshiga, birlik)



2022/2023- o'quv yili


2022/2023- o'quv yilida 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan akademik litseylar soni 1 taga, ya'ni 16,6 % ga ko'paygan.

2022/2023- o'quv yili boshiga ularning eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (4 ta) qayd etildi.

Akademik litseylar soni

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 2018/2019- o'quv yili boshiga nisbatan 2,2 ming kishiga, ya'ni 49,4 % ga kamaygan.





Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)


Qarshi sh.	1,7	-48,7%
Shahrisabz sh.	0,2	-47,3%
Qarshi t.	0,3	

O'quvchilar soni | 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'sish sur'ati

2022/2023- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng katta qismi Qarshi shahrida (1,7 ming kishi), eng kam qismi Shahrisabz shahrida (0,2 ming kishi) qayd etilgan. 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan salbiy o'sish surati Qarshi shahrida (- 48,7 %) va Shahrisabz shahrida (-47,3 %) aks etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi 70,1 % ni (1,6 ming kishi), qizlar ulushi 29,1 % ni (0,6 ming kishi) tashkil etdi.





Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi


(o'quv yili boshiga, kishi)



2018-2022- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnida, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 58 kishiga, ya'ni 21,0 % ga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining eng ko'p qismi Qarshi shahrida (162 kishi), eng kam esa Shahrisabz shahrida (26 kishi) qayd etilgan.

Akademik litseylarning bitiruvchilari

(ming kishi)



2022- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2019- yilga nisbatan 0,7 ming kishiga, ya'ni 36,8 % ga kamaygan.






Qashqadaryo viloyatida professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni

(o'quv yili boshiga, birlik)



Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar ko'payganligi, kasb-hunar maktablari hamda kollejlar esa kamayganligini kuzatish mumkin.


Masalan, 2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablari hamda texnikumlar soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 1 taga ko'paygan, kollejlar soni esa 1 taga kamaygan





Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)




2020/2021- o'quv yilidan 2022/2023-o'quv yiligacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 2,1 barobarga, texnikumlarda 3,5 barobarga, kollejlarda esa 1,9 barobarga oshgan.


Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)


Kasb-hunar maktablari



Texnikumlar



Kollejlar



2022/2023- o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonida o'g'il bolalarning ulushi (50,6 %) qizlarning ulushiga (49,4 %) nisbatan ko'p bo'lgan.

Agarda professional ta'limning har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (78 %) ulushi qizlar (22 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il


bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 76,3 % ni, o'g'il bolalar ulushi 23,7 % ni, texnikumlarda esa qizlar 79,7 % ni, o'g'il bolalar 20,3 % ni tashkil qilgan.






Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining o'qituvchilari tarkibi

(o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2020/2022- o'quv yiliga nisbatan 45,5 % ga oshgan.

Viloyat bo'yicha




Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari
(2022- yil uchun, ming kishi)







Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda* (2022/2023- o'quv yili boshiga)



2022/2023- o'quv yili boshida Qashqadaryo viloyatida **35** ta kasb-hunar maktablari mavjud.


*shu jumladan madaniyat va san'at maktablaring qo'shgan holda





Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida 2022/2023- o'quv yili boshiga



2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **16,6** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Chiroqchi tumanida – **1,6** ming nafar, eng kami Ko'kdala tumanida – **0,4** ming nafar.

**Qiz bolalar
22,0 %**



**O'g'il
bolalar
78,0 %**





Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **22,0** foizini qizlar, **78,0** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.





Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)



2022- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **188** nafarga yoki **1,1** barobarga ko'payib, **11771** nafarni tashkil etdi.



Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Qarshi shahrida – **427** nafar, eng kami – Ko'kdala tumanida – **31** kishi qayd etilgan.





Kollejlar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida






2022/2023- o'quv yili boshida Qashqadaryo viloyatida **16** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Qarshi shahrida (3 birlik) qayd etilgan.





Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida





2022/2023- o'quv yili boshida Qashqadaryo viloyatidagi **16** ta kollejda **6,3** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Shahrisabz tumanida (**1,9** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Nishon tumanida (**0,1** ming kishi) qayd etilgan.





Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi
(o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida





2022/2023- o'quv yili boshida kollejlarda 276 nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan (2021- yilda – 85 nafar) 44,5 foizga oshgan.

■ 2021/2022 ■ 2022/2023





**Texnikumlarni hududlar
bo'yicha taqsimlanishi, birlikda
(o'quv yili boshiga)**





Qashqadaryo viloyatida 2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlar soni **12** tani tashkil etdi, 2021/2022- o'quv yili boshiga nisbatan **1** taga kamaydi.





Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tuman kesimida






2022/2023- o'quv yili boshida Qashqadaryo viloyatidagi texnikumlarda **9,7** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (**4,5 ming**), eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida (**0,1** ming) qayd etilgan.





Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

Shahar va tumanlar bo'yicha



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda **298** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (77 nafar) nisbatan **1,2** barobar kamaygan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Qarshi shahrida – **111** nafar, eng kami – Qarshi tumanida – **4** nafar qayd etildi.





Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'рта professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'рта maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ijtimoiy
soha statistikasi bo'limi



**Qashqadaryo viloyat
statistika boshqarmasi**



**Manzil: : Qarshi sh.
Mustaqillik ko'chasi, 2**



Tel.: +99875 221-09-71



e-mail: qashstat@inbox.uz



www.qashstat.uz



facebook.com/qashstat.uz

